



**DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATIDA NODAVLAT
TASHKILOTLARNING TUTGAN O'RNI**

Samarqand davlat universiteti

*Kattaqo'rg'on filiali "Axborot texnologiyalari"
kafedrasи Matematika yo'naliши 3-kurs talabalari*

Abdiqayumova Parvina A'zam qizi

Shonazarova Iroda Sherzod qizi

Rajabova Setora SHerzod qizi

Rizayeva Sevinch Najmuddinovna

Sovutov Sirojiddin Farxod o'g'li

Ilmiy rahbar: Samarqand davlat universiteti

*Kattaqo'rg'on filiali "Pedagogika va tillarni o'qitish"
kafedrasи assisenti Butoev Ilxom Uzokovich*

Annotatsiya. Maqolada barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining roli tahlil qilingan. Barqaror rivojlanishning falsafiy mohiyati ochib berilgan. 2030 yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar. Inson manfaati, fuqarolik jamiyati, nodavlat notijorat tashkilotlar, barqaror rivojlanish, xalq farovonligi, milliy strategiya.

O'zbekiston inson manfaati, erkinligi va qadr-qimmatiga xizmat qiluvchi buyuk mamlakatdir. So'nggi besh yil ichida O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish va bozor iqtisodiyotiga o'tishda qator chora-tadbirlar majmuining maqsadli amalgalashirilib borishi natijasida ulkan yutuqlarga erishilmoqda. Buning isbotini O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi hayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalardagi ijobjiy o'zgarishlarda ko'rish mumkin. 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning qabul qilinishi barqaror rivojlanishning milliy standartlarini ishlab chiqish hamda uning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ekologik jihatlarini uyg'unlashtirish orqali farovonlik darajasini oshirish maqsadida yangi global hamkorlik uchun zamin yaratmoqda.

- 2020 yil 19-21 may kunlari Ixtiyoriy Milliy hisobotni tayyorlash jarayonini yoritish hamda aholining ushbu masala yuzasidan xabardorligini muntazam oshirib borish maqsadida "Yuksalish" umummiliy harakati va Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari, OAV va xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirokida alohida BRMga erishish natijalari bo'yicha

O'zbekiston Respublikasida 2030 yilgacha bo'lgan Milliy BRMlarni amalgalashirishi natijalari va mamlakatning Ixtiyoriy Milliy hisoboti loyihasi Parlamentda ko'rib chiqilgan va keng miqqosda muhokama hamda brifinglar o'tkazilgan;

- 2020 yil 27 avgust kuni Muvofiqlashtiruvchi kengashning navbatdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirilgan ishlar va Global indikatorlar tizimidan kelib chiqib, milliy indikatorlar ro‘yxati yangilanishi maqsadida Davlat statistika qo‘mitasi raisi B.Begalovning axboroti eshitilgan.

Shuningdek, 2021 yil 5 aprel kuni Inson kapitalini riojlantirish Loyihasi bo‘yicha “Barqaror ekologik va inklyuziv tiklanish uchun inson kapitaliga investisiya qilish” mavzusida Virtual tarzda Vazirlar yig‘ilishi hamda 2021 yil 12-15 aprel kunlari BMT Iqtisodiy va ijtimoiy Kengashi (EKOSOS) Byurosining onlayn formatda navbatdagi “Tariqqiyotni moliyalashtirish” mavzusidagi Forumi o‘tkazildi. Ushbu jarayonlarda xususan, milliy rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari ham keng jalg qilinganligi e’tiborga sazovordir.

E’tiborli, BMTning 2030 yilgacha bo‘lgan Global kun tartibi va Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq ravishda O‘zbekistonda milliy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini ilgari surishda borasida ko‘mak berish bo‘yicha o‘zaro birgalikdagi sa‘y-harakatlarni amalga oshirmoqda. Shuningdek, ushbu dastur va boshqa tashabbuslar mamlakatimizning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi islohotlari izchil amalga oshirilayotgan 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi [1]ning eng muhim yo‘nalishlari ifodasi bo‘lib, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga to‘liq mos va hamohang ekanligini alohida ta’kidlab o‘tish joiz.

Ma’lumki, barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda, albatta, fuqarolik jamiyati institutlaring roli benihoya katta. Tarixiy taraqqiyotdan ma’lumki, fuqarolik jamiyatining erkinligi, gullab-yashnashi uchun davlat va qonunlar kuchli, adolatli bo‘lishi zarurdir. Ta’kidlash joizki, erkinlikni oddiy fuqarolar, umumiyligini olganda, jamiyat qo‘lga kiritadi. Shundan kelib chiqqan holda, aytish mumkinki, kuchli fuqarolik jamiyati davlatni nazorat qilishi lozimdir, ayni paytda davlat jamiyatning erkinligini himoyalashi va rag‘batlantirishi kerak.

E’tirof etish joizki, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi [5]da aynan islohotlarimiz xalqimizning kundalik hayotida o‘z ifodasini topayotgani, kutgan natijalarimizga erishish ko‘p jihatdan davlat boshqaruvidagi samaradorlikka bevosita bog‘liqligi va ushbu maqsadda 2021 yilda amalga oshirish lozim bo‘lgan vazifalarni belgilab berdilar.

Davlatimiz rahbari o‘z so‘zida erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlashni davom ettirish lozimligini, nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini joylardagi dolzarb muammolarni hal etishga qaratish zarurligini bildirib o‘tdi.

Ayniqsa, mavjud muammolarni aniqlash, ularni chuqur tahlil qilish, yechimlari bo‘yicha taklif ishlab chiqish, ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini ta’minlashga

ijtimoiy buyurtma asosida nodavlat notijorat tashkilotlari keng jalg etilishi, bu turdag'i hamkorliklarni, eng avvalo, ta'lim, madaniyat, tibbiyot, ekologiya, qurilish, kadastr, transport, kommunal xo'jaligi, bandlik, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish kabi muammoli sohalarda keng joriy etish maqsadga muvofiqligini va bu ishlarni tashkil etish uchun joriy yilda byudjetdan 60 milliard so'm yo'naltirilishi bildirildi.

Shuningdek, Qonunchilik palatasida nodavlat notijorat tashkilotlarining doimiy vakili institutini joriy etish va ushbu vakil quyi palata yig'ilishlarida ishtirok etishi, qabul qilinayotgan qonunlarga ta'sirchan jamoatchilik nazorati va ijtimoiy sheriklik masalalarini kiritish bo'yicha takliflar berish vakolatiga ega bo'lishi zarurligini bildirilgan. Haqaqatdan ham ushbu vakili instituti quyi pag'onadagi o'z vakillari bilan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi ayni muddaodir, qonun loyihibalarini muhokama qilishda o'z takliflarini oldinga surishi, muhokamalarda qatnashib xalqchin qonunlar qabul qilishda juda katta hissasini qo'shamdi.

Murojaatnomadan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi mamlakatimiz uchun muhim Farmoni qabul qilindi.

E'tirof etish joizki, so'nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashda, davlat organlari va ular o'rtasida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirishda, ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda, shuningdek, ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish borasida yurtimizda izchil ishlar olib borilmoqda.

Ayniqsa, oxirgi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatini boshqa institutlarining 1 270 dan ortiq loyihibalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida

Davlat byudjetidan 117 milliard so'm miqdordagi mablag'lar ajratildi, ularning huquqiy kafolatlarini ta'minlaydigan, zamonaviy demokratik talablarga va xalqaro standartlarga javob beradigan normativ-huquqiy baza yanada takomillashtirilmoqda, xususan 20 ga yaqin qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari hamda Hukumatning tegishli qarorlari qabul qilingan.

Nodavlat notijorat tashkilotlari manfaatlarini ifoda etish, davlat bilan ular o'rtasidagi ko'priq vazifasini bajarishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi tashkil qilindi, shuningdek, aholi bilan ochiq muloqot olib borishning yangi samarali vositalarini joriy etish maqsadida davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyati yo'lga qo'yilib faol ish olib borilmoqda.

Ko'rileyotgan choralar natijasida so'nggi to'rt yilda fuqarolik jamiyatining eng asosiy instituti hisoblangan nodavlat notijorat tashkilotlari soni 20,7 foizga oshdi, shu jumladan, 187 ta yirik respublika nodavlat notijorat tashkilotlari o'z faoliyatini boshladi.

Konsepsiyaning ustuvor yo'nalishlari etib, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini izchil takomillashtirish, fuqarolik jamiyatni institutlariga ko'mak berish hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada



takomillashtirish, davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, davlat ijtimoiy loyihibalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining ochiqligini ta'minlanishi belgilandi.

Shuningdek, 2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini 2021 yilda amalga oshirish "Yo'l xaritasi" va 2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlandi.

Ushbu maqsadli ko'rsatkichlarda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini davlat tomonidan subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shakllarida qo'llab-quvvatlash hajmini 2021 yilda kamida 1,2 baravarga, 2025 yilda 1,8 baravarga oshirilishini, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondlariga 2021 yilda 16 milliard so'm, 2025 yilda 70 milliard so'm mablag'lar ajratilishini, O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi a'zolari sonini jami faoliyat ko'rsatayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari soniga nisbatan 2021 yilda 10 foizga, 2025 yilda 30 foizga yetkazilishini, har bir davlat organi huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatida fuqarolar tashabbusi bilan tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkilotlari vakillarining sonini 2021 yilda 5 foizga, 2025 yilda 25 foizga yetkazilishini, nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan yuqori turuvchi tashkilotlarga qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan kiritilgan takliflarning umumiyligi sonini 2021 yilda 1000 taga, 2025 yilda 5000 taga yetkazilishini ta'minlanishini, mamlakatimizda e'lon qilinadigan yilga oid davlat dasturida ishtirok etayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari sonini 2021 yilda 30 taga, 2025 yildagi davlat dasturida - 50 taga yetkazilishini belgilandi.

Shu bilan birga, ushbu ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish hamda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yaqin va o'rta muddatli istiqbollari belgilanib, 2021 yil 1 apreldan boshlab nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining ochiqlik indeksi joriy qilinishi va unga ko'ra har yil yakunlari bo'yicha nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar, ijtimoiy sheriklik darajasi, ajratilgan subsidiya, grant va ijtimoiy buyurtmalar natijadorligi va boshqa muhim faoliyat ko'rsatkichlariga asosan ularning reytingi tuzilishi nazarga tutildi.

Ushbu yo'nalihsda yana bir muhim hujjat, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalihi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida 2018 yil 4 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3837-sonli [2] qarori bo'lib, unda davlat organlari jamoatchilik kengashlarining tarkiblarini tasdiqlashi va ularning faoliyatini tashkil etishga doir masalalar hal etilishini ta'minlash bilan birgalikda davlat organiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib



chiqib, jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi namunaviy nizom asosida jamoatchilik kengashlari haqidagi nizomlarni ishlab chiqish va tasdiqlash hamda Jamoatchilik Kengashlarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish belgilangan.

E’tiborli jihat Qarorda vazirliklar xuzuridagi jamoatchilik kengashlari tarkibiga nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, davlat organlarida namunali xizmat ko‘rsatgan mexnat faxriylari, jamoatchilik faoliyati soxalarida katta amaliy tajribaga ega obro‘-e’tiborli fuqrolar hamda OAV vakillari qabul qilinishi nazarda tutilgan.

Umuman olganda, mazkur qarorning ijrosini ta’minlashda ya’ni davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish, yo‘lga qo‘yish va yanada takomillashtirishda oldimizda turgan quyidagi ishlarni amalga oshirishimiz lozim. Jumladan:

- davlat organining nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta’minlash uchun davlat organini fuqarolar bilan bog‘lab turadigan "ko‘prik" rolini bajarish;

- davlat boshqaruvi organlariga nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushgan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni umumlashtirish va baholash;

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan davlat organining faoliyati haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish va har tomonlama tahlil qilish, sotsiologik so‘rovlар o‘tkazish, jumladan ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘tkazish;

- davlat organi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilgan ishlarni ustidan monitoring va tahlil o‘tkazish, shuningdek, ularning natijalari bo‘yicha takliflar tayyorlash;

- davlat organi faoliyatining ochiqligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to‘g‘risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

- davlat organi faoliyatini isloh qilishda fuqarolar ishtirok etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o‘rganish va ularni yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish; - davlat organi faoliyati bo‘yicha fuqarolar o‘rtasida o‘tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- davlat organlari xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko‘rsatish sharoitlarini, shuningdek, ishdan bo‘shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish bo‘yicha muammolarni kompleks tahlil qilish hamda tahlil yakunlari

bo'yicha mazkur sharoitlarni yaxshilash yuzasidan takliflar kiritish;

- davlat organlarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish masalalarida davlat va xalq o'rtaida «muloqot maydoni»ni shakllantirishga xizmat qilish;

- davlat organlarining fuqarolar bilan ochiq va manzilli muloqot olib borishning yangi samarali vositalari va mexanizmlarini joriy etilishiga hamda davlat organlarining faoliyatini shaffofligini ta'minlanishga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va bartaraf etish choralarini yuzasidan tavisiyalar ishlab chiqish va tadbiq etish;

- davlat organlari faoliyatidagi muammolarni aniqlash hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish jarayonlariga ko'rsatilayotgan salbiy ta'sirlarning omillarini aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rish;

- davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtaida ta'sirchan hamda samarali muloqotni yo'lga qo'yish borasidagi muammolarni aniqlash va tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish;

- jamoatchilik Kengashini tashkil etish to'g'risidagi hujjat va uning tarkibini keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida davlat organining rasmiy veb-saytida e'lon qilish;

- fuqarolarga davlat organlari faoliyati to'g'risida batafsил axborot olish uchun imkoniyatlar yaratish choralanrini ko'rish;

- davlat organlari faoliyatida sog'lom ishchanlik muhitini va qonuniylikni joriy etish, xodimlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish choralarini ko'rish vazifalarni amalga oshirishimiz maqsadga muvofiqli.

Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish hamda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun zarur institusional baza yaratildi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturining 3-bandи [3] ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи Qonunchilik palatasining Kengashi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи

Senatining Kengashi tomonidan "Buxoro shahrida «Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo global hamkorlik» mavzusidagi xalqaro forumni o'tkazish to'g'risida" qo'shma qarorini imzoladi. Ushbu qaror bilan Global forumini o'tkazish bo'yicha tashkiliy dasturlar va keng ko'lamlı chora-tadbirlar ishlab chiqilib, unga tayyorgarlik ko'rish va uni tashkiliy jihatdan yuqori saviyada o'tkazish tartiblari belgilandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи palatalarining qo'mitalari 2021 yil 10 - 20 iyun kunlari davomida Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlar va vazifalar doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunmohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish uchun Barqaror rivojlanish haftaligini o'tkazildi, unda har bir maqsad bo'yicha turkum davra suhabatlari tashkil etilib yakunlari bo'yicha bildirilgan takliflarni Tashkiliy qo'mitaga kiritildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.03.2021 yildagi PF-6181-sonli «2021-2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni.
2. МирхамидовМ. Демократизацияоргановгосударственногоуправления РеспубликиУзбекистан: проблемыи перспективы. –Ташкент: Университет, 1992.
3. МусаевФ. Демократикдавлатқуришнингфалсафий-ҳуқукиймасалалари. – Ташкент: Ўзбекистон, 2007.
4. ОдилқориевХ.Т. Конституциявафуқароликжамияти. –Ташкент: Шарқ, 2001.
5. СайдовА., ЖўзжонийА. Шарқтивилизацияси: инсонваҳуқуқ (ўтмишваҳозиргизамон). –Ташкент: Адолат, 2005.
6. ТуйчиевБ. Проблемыформированияполитическойкультурыидемократизациясовременногообщества. –Ташкент: Фан, 1991.
7. ТўлагановаА. Давлатҳокимиятинингвакилликваўзиниўзибошқаришорганларифаолиятиниташиклиётини ш. –Ташкент: ТДЮИ, 2002.
9. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2021). THE PEDAGOGICAL SYSTEM OF PREPARING BOYS FOR FAMILY RELATIONSHIPS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(8).
10. Tuychieva, I., Aripov, S., Madaminova, D., & Mustaev, R. (2023, June). Language and computer in the development of communicative competence of school children. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.
11. Olimovich, A. S. (2023). DINIY VA DUNYOVIV BILIMLAR ASOSIDA AJRIM SABABLARINI YOSHLARNI OILAGA TAYORLASHDA YETKAZIB BERISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(26), 335-338.
12. Арипов, Ш. О. (2022). Ёшларни оиласга тайёрлашда оиласда эр ва хотиннинг айрим мажбурият ва бурчларини қонуний жиҳатдан тушунириш. Academic research in educational sciences, 3(1), 68-75.
13. Olimovich, A. S. (2023). The Role of Parents in the Formation of Young People and the Imagination of the Family. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 2(4), 4-8.
14. Aripov, S. O. (2020). SOCIO-PSYCHOLOGICAL ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE FAMILY IN PREPARING CHILDREN. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 311-313).
15. Матякубов, Р., Урмонов, С., Касимова, Х., & Каримов, Ш. (2020). Гидрирование дифурфурлиденацетона на палладиевых катализаторах. Universum: технические науки, (3-2 (72)), 37-39.

16. Abdullayeva, U., & Urmonov, S. (2022, October). WAYS OF ENVIRONMENTAL EDUCATION AND ENVIRONMENTAL EDUCATION BY SOLVING ISSUES RELATED TO ECOLOGY IN CHEMISTRY LESSONS. In Conference Zone (pp. 69-71).
17. Матякубов, Р., Урмонов, С., Касимова, Х. Х., Абдисаматов, Э. Д., & Исмоилов, Ш. Ш. У. (2019). Защита бетонной поверхности от воздействия агрессивных сред. Universum: технические науки, (11-2 (68)), 5-7.
18. Матяқубов, Р. М., Урмонов, С. М., Исмоилов, М. Ю., & Ўқтамова, Д. О. (2020). СИНТЕЗ И ИССЛЕДОВАНИЕ СВОЙСТВ ФЕНОЛОФОРМАЛЬДЕГИДНО-ФУРАНОВЫХ СВЯЗУЮЩИХ. Universum: технические науки, (11-3 (80)), 72-76.